ZAMONAVIY INNOVATSION MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA ULARNING KORXONA FAOLIYATINI RIVOJLANISHIDAGI O'RNI

Mustafaqulov Yangiboy Bo'riqulovich
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti
"Iqtisodiyot va menejment" kafedrasi katta o'qituvchisi
(Mustaqil izlanuvchi)
yangiboymustafoqulov@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada, zamonaviy innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarining nazariy va amaliy jihatlari hamda ularning korxona faoliyatini rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Xususan, venchur kapitali, kraudfanding, biznes farishtalar, xususiy investitsiya fondlari, davlat grantlari, korporativ innovatsion fondlar, yashil moliyalashtirish va raqamli moliyaviy platformalar kabi, innovatsion moliyalashtirish vositalarining korxonalarning investitsion faolligi, innovatsion salohiyati va raqobatbardoshligini oshirishga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, rivojlangan davlatlar tajribasi hamda O'zbekistonda innovatsion moliyalashtirish tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari tahlil qilinib, korxonalarda zamonaviy moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Аннотация: В данной научной статье исследуются теоретические и практические аспекты современных механизмов инновационного финансирования, а также их роль в развитии деятельности предприятий. В частности, рассмотрено влияние таких инструментов инновационного финансирования, как венчурный капитал, краудфандинг, бизнес-ангелы, фонды прямых инвестиций, государственные гранты, корпоративные инновационные фонды, зеленое финансирование и цифровые финансовые платформы, на повышение инвестиционной активности, инновационного потенциала и конкурентоспособности предприятий. Кроме того,

проанализирован опыт развитых стран и определены приоритетные направления совершенствования системы инновационного финансирования в Республике Узбекистан. По результатам исследования разработаны научно-практические предложения и рекомендации, направленные на эффективное внедрение современных механизмов инновационного финансирования в деятельность предприятий и обеспечение их устойчивого развития.

Abstract: This scientific article examines the theoretical and practical aspects of modern innovative financing mechanisms and their role in the development of enterprise activities. In particular, it analyzes the impact of innovative financing instruments such as venture capital, crowdfunding, business angels, private equity funds, government grants, corporate innovation funds, green finance, and digital financial platforms on enhancing enterprises' investment activity, innovation capacity, and competitiveness. The article also explores the experience of developed countries and identifies the priority directions for improving the innovative financing system in the Republic of Uzbekistan. Based on the findings, scientific and practical recommendations are proposed to facilitate the effective implementation of modern innovative financing mechanisms, strengthen enterprises' sustainable development, and improve their long-term economic efficiency.

Kalit so‘zlar: Innovatsion moliyalashtirish, zamonaviy moliyalashtirish mexanizmlari, korxona rivojlanishi, innovatsion loyihalar, venchur kapitali, kraudfanding (crowdfunding), biznes farishtalari (business angels), xususiy kapital (private equity), raqamli moliyalashtirish, FinTech, investitsiya faoliyati, moliyaviy resurslar, korxona raqobatbardoshligi, iqtisodiy samaradorlik, barqaror rivojlanish.

Ключевые слова: Инновационное финансирование, современные механизмы финансирования, развитие предприятия, инновационные проекты, венчурный капитал, краудфандинг, бизнес-ангелы, частный капитал (Private Equity), цифровое финансирование, финансовые технологии (FinTech), инвестиционная деятельность, финансовые ресурсы, конкурентоспособность предприятия, экономическая эффективность, устойчивое развитие.

Keywords: Innovative financing, modern financing mechanisms, enterprise development, innovative projects, venture capital, crowdfunding, business angels, private equity, digital financing, financial technologies (FinTech), investment activity, financial resources, enterprise competitiveness, economic efficiency, sustainable development.

KIRISH.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida raqamlashtirish, texnologik yangilanish va innovatsion rivojlanish jarayonlarining jadallashuvi korxonalar faoliyatini moliyaviy ta’minlashning an’anaviy yondashuvlarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Bozor sharoitida korxonalarning raqobatbardoshligi nafaqat ishlab chiqarish quvvatlari va mavjud moliyaviy resurslarga, balki yangi texnologiyalarni joriy etish, innovatsion mahsulot va xizmatlarni yaratish hamda investitsion loyihalarni samarali moliyalashtirish imkoniyatlariga ham bevosita bog‘liq. Shu sababli, innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning zamonaviy va muqobil mexanizmlarini shakllantirish korxonalar barqaror rivojlanishining muhim omillaridan biriga aylanmoqda.

Innovatsion moliyalashtirish mexanizmlari korxonalarning o‘z mablag‘lari bilan bir qatorda venchur kapital, kraudfanding, biznes farishtalar investitsiyalari, grantlar, davlat subsidiyalari, startap akseleratorlari, raqamli investitsiya platformalari, fintech xizmatlari va boshqa zamonaviy moliyaviy vositalardan foydalanishini nazarda tutadi. Mazkur mexanizmlar ayniqsa, yuqori texnologiyali va tez o‘suvchi loyihalarni moliyaviy resurslar bilan ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. An’anaviy bank kreditlariga nisbatan ushbu moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyalanganligi korxonalarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, kapital qiymatini optimallashtirish va innovatsion loyihalarning investitsion jozibadorligini oshirish imkonini beradi1.

1 Vahobov A.V., Malikov T.S., Moliya. Toshkent-2011

O‘zbekiston iqtisodiyotida ham innovatsion faoliyatni rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan samarali foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Korxonalarning innovatsion salohiyatini oshirish uchun davlat tomonidan grantlar, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va investitsiya mexanizmlarining kengaytirilishi bilan bir qatorda xususiy kapital, venchur moliyalashtirish va raqamli moliyaviy platformalarni rivojlantirish zarurati ham ortib bormoqda. Ayniqsa, kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun innovatsion loyihalarni amalga oshirishda moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish muhim ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI.

Innovatsion moliyalashtirish masalalari zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning muhim omili sifatida tadqiq etilmoqda. Mazkur yo‘nalishda, xorijiy olimlarning tadqiqotlarida innovatsiyalarni moliyalashtirishning venchur kapitali, davlat grantlari, biznes farishtalari, kraudfanding, bank kreditlari va korporativ moliyalashtirish kabi mexanizmlariga alohida e’tibor qaratilgan2.

J.Shumpeter innovatsiyani iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida baholab, tadbirkorlik faoliyati va yangi texnologiyalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash iqtisodiy taraqqiyot uchun muhimligini asoslagan. Uning yondashuvi innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning nazariy asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

P.Drucker esa, innovatsiyani korxonaning raqobatbardoshligini ta’minlovchi strategik vosita sifatida ko‘rib, innovatsion faoliyatni samarali boshqarish va unga yetarli moliyaviy resurslarni yo‘naltirish zarurligini ta’kidlaydi.

2 B.S.Mamatov va boshq. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Toshkent-2013

Zamonaviy tadqiqotlarda innovatsion moliyalashtirishning muqobil shakllari ham keng o‘rganilmoqda. Xususan, J.Lerner venchur kapitalining innovatsion tadbirkorlik va yuqori texnologiyali korxonalar rivojlanishidagi rolini tadqiq etgan. Josh Lerner H. Chesbrough tomonidan ilgari surilgan ochiq innovatsiyalar kontseptsiyasi esa, korxonalarning tashqi moliyaviy va intellektual resurslardan foydalanishi innovatsion jarayonlarni tezlashtirishini ko‘rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Mazkur tadqiqotda zamonaviy innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarining korxona faoliyatini rivojlantirishdagi o‘rnini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslash maqsadida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, induktsiya va deduktsiya, ekspert baholash hamda ilmiy abstraktsiyalash usullaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasining asosini innovatsion faoliyat va uni moliyalashtirish jarayonlarini korxonaning moliyaviy barqarorligi, investitsion faolligi, raqobatbardoshligi va iqtisodiy samaradorligi bilan o‘zaro bog‘liq holda o‘rganishga qaratilgan tizimli yondashuv tashkil etadi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik bazasini innovatsiyalar iqtisodiyoti, korporativ moliya, investitsiyalarni boshqarish, venchur moliyalashtirish va raqamli moliyalashtirishga oid mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, shuningdek, xalqaro tashkilotlarning tahliliy materiallari tashkil etdi. Innovatsion moliyalashtirishning an’anaviy va zamonaviy shakllari, jumladan, bank kreditlari, davlat grantlari va subsidiyalari, venchur kapital, biznes farishtalar, kraudfanding, kraudinvesting, lizing, korporativ venchur kapital, raqamli moliyaviy platformalar va boshqa muqobil moliyalashtirish manbalari o‘zaro qiyosiy tahlil qilindi[3].

Tadqiqotda innovatsion moliyalashtirish samaradorligini baholash uchun investitsiyalar rentabelligi (ROI), sof joriy qiymat (NPV), ichki daromadlilik normasi (IRR), investitsiyalarning qoplanish muddati (Payback Period) kabi, moliyaviy ko‘rsatkichlardan foydalanish imkoniyatlari ham ko‘rib chiqildi. Ushbu

3 И.А.Бланк. Управление финансовыми ресурсами предприятия. Москва-2011

metodlar asosida zamonaviy innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini korxonalarning moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojiga moslashtirish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish va innovatsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Zamonaviy innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadi-ki, korxonalar faoliyatini rivojlantirishda an’anaviy moliyalashtirish manbalari bilan bir qatorda venchur kapital, kraudfanding, biznes farishtalar, grantlar, davlat subsidiyalari, lizing, korporativ investitsiyalar hamda raqamli moliyaviy platformalardan foydalanish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur mexanizmlar korxonalarning moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojini qoplash bilan birga, yangi mahsulot va texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va bozordagi raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Tahlil natijalari innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda eng muhim omillardan biri moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish ekanligini ko‘rsatadi. Xususan, kichik va o‘rta korxonalar uchun grant va subsidiyalar dastlabki bosqichdagi moliyaviy yuklamani kamaytirsa, venchur kapital va biznes farishtalar yuqori o‘sish salohiyatiga ega loyihalarni rivojlantirish imkonini beradi. Raqamli moliyalashtirish platformalari esa investor va korxonalar o‘rtasidagi vositachilik xarajatlarini kamaytirib, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bugungi kunda, global iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi korxonalarni moliyalashtirish mexanizmlariga ham tub o‘zgarishlar olib kirdi. An’anaviy bank kreditlari va korxonaning o‘z mablag‘lariga asoslangan moliyalashtirish modeli so’nggi paytlarda innovatsion faoliyat ehtiyojlarini to‘liq qondira olmayapti. Innovatsion loyihalar odatda yuqori tavakkalchilik, uzoq investitsiya davri va noaniq

daromadlilik bilan tavsiflanadi[4]. Shu sababli, yangi moliyaviy instrumentlar shakllandi va amaliyotga keng joriy etildi. Shulardan biri Venchur kapitaldir.

Venchur kapital innovatsion korxonalarni moliyalashtirishning eng samarali mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Ushbu modelda investor yuqori tavakkalchilikni qabul qilgan holda korxonaning ustav kapitalidan ulush sotib oladi. Moliyalashtirish faqat mablag‘ ajratish bilan cheklanmaydi, investor strategik boshqaruv, marketing, xalqaro hamkorlik va korporativ boshqaruvni rivojlantirishda ham ishtirok etadi.

Biznes farishtalari (Business Angels).

Innovatsion moliyalashtirishning dastlabki bosqichida, biznes farishtalari alohida o‘rin tutadi. Ular odatda tajribali tadbirkorlar yoki xususiy investorlar bo‘lib, istiqbolli g‘oyalarni dastlabki rivojlanish bosqichida moliyalashtiradi.

Kraudfanding (Crowdfunding).

Kraudfanding — internet platformalari orqali ko‘plab investorlarning kichik miqdordagi mablag‘larini birlashtirishga asoslangan moliyalashtirish shaklidir.

Korporativ venchur kapital.

Yirik korporatsiyalar innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish maqsadida o‘z venchur fondlarini tashkil etmoqda. Ushbu model “Corporate Venture Capital” deb ataladi.

Green Finance va ESG moliyalashtirish.

Barqaror rivojlanish tamoyillarining keng joriy etilishi innovatsion moliyalashtirishda yangi yo‘nalish – yashil moliyalashtirishni shakllantirdi.

FinTech va raqamli moliyalashtirish.

Moliyaviy texnologiyalar (FinTech) innovatsion moliyalashtirishning eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biridir.

Sun'iy intellekt asosidagi moliyalashtirish.

4 А.Н. Фоломьев (под ред.). Инновационный менеджмент. Москва-2017

So‘nggi yillarda sun'iy intellekt innovatsion moliyalashtirishning yangi bosqichini boshlab berdi. Natijada, investitsion qarorlarning aniqligi ortib, kapitaldan foydalanish samaradorligi oshmoqda.

1-jadval

Innovatsion moliyalashtirish instrumentlarining qiyosiy tavsifi.

Instrument	**Risk darajasi**	**Kapital hajmi**	**Innovatsion samaradorlik**
Bank krediti	Past	Yuqori	O‘rtacha
Venchur kapital	Yuqori	Juda yuqori	Juda yuqori
Biznes farishtalari	Yuqori	O‘rtacha	Yuqori
Kraudfanding	O‘rtacha	O‘rtacha	Yuqori
FinTech platformalari	O‘rtacha	Yuqori	Yuqori
ESG moliyalashtirish	Past	Juda yuqori	Yuqori
Green Bonds	Past	Juda yuqori	Yuqori
AI Finance	O‘rtacha	Yuqori	Juda yuqori

Tahlillar shuni ko‘rsatadi-ki, O‘zbekistonda innovatsion moliyalashtirishni rivojlantirish borasida muhim islohotlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

- venchur kapital bozorining yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- biznes farishtalari tarmog‘ining institutsional shakllanmaganligi;
- kraudfanding faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlarning takomillashtirish zarurati;
- ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish darajasining pastligi;
- kichik va o‘rta korxonalarning yuqori riskli loyihalarga investitsiya jalb qilish imkoniyatlarining cheklanganligi;
- innovatsion loyihalarni baholash bo‘yicha zamonaviy metodikalarning yetarli qo‘llanmasligi.

Innovatsion moliyalashtirishning samaradorligi mamlakatning institutsional muhiti, moliya bozori rivojlanganligi, ilmiy salohiyati va davlat siyosati bilan chambarchas bog‘liq. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadi-ki, innovatsion iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi davlat, xususiy sektor, ilmiy muassasalar va moliyaviy institutlarning o‘zaro hamkorligi natijasida shakllanadi. Shu nuqtai nazardan, AQSH, Germaniya, Janubiy Koreya, Singapur va Xitoy tajribasi O‘zbekiston uchun muhim metodologik ahamiyatga ega.

AQSH tajribasi.

AQSH innovatsion moliyalashtirish tizimi dunyodagi eng rivojlangan ekotizimlardan biri hisoblanadi. Bunga Silikon vodiysi, kuchli venchur kapital bozori, rivojlangan fond bozori va ilmiy-tadqiqot universitetlari asos bo‘lgan. Innovatsion korxonalar dastlab biznes farishtalari va venchur fondlari tomonidan moliyalashtiriladi, keyinchalik fond bozoriga chiqish (IPO) orqali yirik kapital jalb qiladi.

Germaniya tajribasi.

Germaniyada innovatsion moliyalashtirish sanoat korxonalari va ilmiy institutlar o‘rtasidagi uzviy hamkorlikka asoslangan. Mamlakatda kichik va o‘rta korxonalarni qo‘llab-quvvatlash uchun imtiyozli kreditlar, innovatsion grantlar va davlat kafolatlari keng qo‘llaniladi. Natijada, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishning ulushi doimiy ravishda oshib bormoqda.

Janubiy Koreya tajribasi.

Janubiy Koreya innovatsion rivojlanishni davlat strategiyasining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilagan. Texnoparklar, ilmiy markazlar, davlat innovatsion fondlari va eksportni qo‘llab-quvvatlash dasturlari orqali korxonalar faoliyati moliyalashtiriladi. Xususiy sektor ham innovatsion loyihalarga faol investitsiya kiritadi.

Singapur tajribasi.

Singapur innovatsion moliyalashtirishni davlat siyosati, soliq imtiyozlari va xalqaro moliyaviy markaz imkoniyatlari bilan uyg‘unlashtirgan. FinTech, sun'iy

intellekt va raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish bo‘yicha yaratilgan qulay muhit mamlakatni Osiyoning yetakchi innovatsion markazlaridan biriga aylantirdi.

O‘zbekiston amaliyoti.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda innovatsion rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Texnoparklar faoliyati kengaytirildi, startaplarni qo‘llab-quvvatlash dasturlari yo‘lga qo‘yildi, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish mexanizmlari takomillashtirilmoqda. Shu bilan birga, quyidagi yo‘nalishlarni rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- venchur kapital bozorini institutsional rivojlantirish;
- kraudfanding va biznes farishtalari faoliyatini huquqiy tartibga solish;
- universitet–sanoat–investor hamkorligini kuchaytirish;
- innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun maxsus investitsiya fondlarini kengaytirish;
- sun'iy intellekt asosida investitsiya risklarini baholash tizimlarini joriy etish.

2-jadval

Innovatsion moliyalashtirish bo‘yicha mamlakatlar tajribasining qiyosiy tahlili.

Mamlakatlar	**Asosiy moliyalashtirish manbasi**	**Kuchli jihati**	**O‘zbekiston uchun ahamiyati**
AQSH	Venchur kapital	Startap ekotizimi	Venchur fondlarini rivojlantirish
Germaniya	Davlat grantlari va banklar	Sanoat innovatsiyasi	Imtiyozli moliyalashtirish
Janubiy Koreya	Davlat va xususiy sektor	Texnologik rivojlanish	Texnoparklarni kengaytirish
Singapur	FinTech va xalqaro kapital	Raqamli moliya	FinTech ekotizimini rivojlantirish

O‘zbekiston	Bank kreditlari va davlat dasturlari	Islohotlar bosqichi	Moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish

Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan korxonalarni innovatsion moliyalashtirishning integratsiyalashgan modeli taklif etiladi.

Modelning asosiy elementlari quyidagilar[5]***:***

- ***Davlat*** – normativ-huquqiy baza, grantlar, soliq imtiyozlari va kafolatlar.
- ***Xususiy investorlar*** – venchur kapital, biznes farishtalari va korporativ investitsiyalar.
- ***Raqamli platformalar*** – FinTech, kraudfanding va raqamli investitsiya xizmatlari.
- ***Ilmiy muassasalar*** – innovatsion g‘oyalar va ilmiy ishlanmalar.
- ***Korxonalar*** – innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish va tijoratlashtirish.
- ***Sun'iy intellekt*** – investitsiya risklarini baholash va qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash.

Mazkur model moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyasini ta'minlab, innovatsion loyihalarni amalga oshirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Tadqiqot natijalariga asoslanib muallif tomonidan quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- O‘zbekistonda venchur kapital fondlari faoliyatini rivojlantirish uchun alohida huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish.
- Innovatsion startaplarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan davlat-xususiy sheriklik fondlarini tashkil etish.
- Kraudfanding platformalari faoliyatini tartibga soluvchi zamonaviy me'yoriy-huquqiy bazani shakllantirish.

5 Malikov T.S., Olimjonov O.O., Moliya. Toshkent-2019

- Korxonalarda ESG va “Yashil” moliyalashtirish tamoyillarini joriy etishni rag‘batlantirish.
- Innovatsion loyihalarni baholashda sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (Big Data) texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish.
- Universitet–ilmiy markaz–biznes–investor hamkorligini mustahkamlash orqali innovatsiyalarni tijoratlashtirish darajasini oshirish.
- Innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxonalar uchun soliq va moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlarini kengaytirish.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadi-ki, innovatsion moliyalashtirish korxonalarning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlovchi strategik omillardan biridir. Uning tarixiy evolyutsiyasi an'anaviy kreditlashdan raqamli, ko‘p manbali va intellektual moliyalashtirish tizimiga o‘tganligini ko‘rsatadi. Zamonaviy sharoitda venchur kapital, biznes farishtalari, kraudfanding, FinTech, ESG moliyalashtirish va sun'iy intellekt asosidagi investitsiya mexanizmlari innovatsion rivojlanishning muhim instrumentlariga aylandi.

Innovatsion moliyalashtirish tizimining samaradorligini baholashda SWOT tahlil usulidan foydalanish korxonaning ichki salohiyati va tashqi muhit omillarini kompleks baholash imkonini beradi.

3-jadval

Korxonalarda innovatsion moliyalashtirish tizimining SWOT tahlili[6].

Kuchli jihatlar (Strengths)	Zaif jihatlar (Weaknesses)
Moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyasi	Venchur kapital bozori yetarlicha rivojlanmagan
Innovatsion loyihalarning tezroq amalga oshirilishi	Innovatsion risklarning yuqoriligi
Xalqaro investorlarni jalb qilish imkoniyati	Moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi

6 В.В.Ковалёв. Финансовый менеджмент: теория и практика. Москва-2019

FinTech va AI texnologiyalaridan foydalanish	Innovatsion loyihalarni baholash metodikalarining cheklanganligi
Kapital qiymatini optimallashtirish	Raqamli infratuzilmaning hududlar bo‘yicha notekis rivojlanishi
Imkoniyatlar (Opportunities)	**Tahdidlar (Threats)**
Sun'iy intellekt asosidagi investitsiya platformalari	Global iqtisodiy beqarorlik
ESG va yashil moliyalashtirishning kengayishi	Moliya bozorlaridagi keskin tebranishlar
Xalqaro investitsiyalar oqimining ortishi	Kiberxavfsizlik tahdidlari
Startap ekotizimining rivojlanishi	Kapital oqimlarining qisqarishi
Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining kengayishi	Geosiyosiy xavflar

SWOT tahlil natijalari shuni ko‘rsatadi-ki, O‘zbekistonda innovatsion moliyalashtirishni rivojlantirish uchun sezilarli imkoniyatlar mavjud. Shu bilan birga, bu imkoniyatlardan samarali foydalanish institutsional islohotlarni davom ettirish, investorlar huquqlarini himoya qilish va innovatsion infratuzilmani yanada rivojlantirishni talab qiladi.

Tadqiqot davomida korxonalarni innovatsion moliyalashtirishning integratsiyalashgan modeli ishlab chiqildi. Mazkur model innovatsion ekotizimning asosiy ishtirokchilari va ularning o‘zaro aloqalarini aks ettiradi. Ular quyidagilar:

1-bosqich. *Innovatsion g‘oyaning shakllanishi.* Bular: ilmiy tadqiqot institutlari; oliy ta'lim muassasalari; startap jamoalari; korxonaning ichki ilmiy salohiyati.

2-bosqich. *Moliyalashtirish manbalarini tanlash.* Bular: korxonaning o‘z mablag‘lari; bank kreditlari; davlat grantlari; venchur kapital; biznes farishtalari; kraudfanding; korporativ investitsiyalar.

3-bosqich. *Raqamli baholash.* Ushbu bosqichda sun'iy intellekt asosida: loyiha rentabelligi; tavakkalchilik darajasi; investitsiya qaytimi; pul oqimlari; ESG ko‘rsatkichlari baholanadi.

4-bosqich. *Innovatsiyani tijoratlashtirish.* Bular: mahsulot ishlab chiqarish; bozorga chiqarish; eksport; patentlash; litsenziyalash.

5-bosqich. *Natijalarni reinvestitsiya qilish.* Bular: olingan foydaning bir qismi yana ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo‘naltiriladi. Buning natijasida esa, innovatsion rivojlanishning uzluksiz tsikli shakllanadi.

Mazkur modelning afzalligi shunda-ki, u innovatsion moliyalashtirishni alohida moliyaviy instrumentlar yig‘indisi sifatida emas, balki yagona boshqaruv tizimi sifatida ko‘rib chiqadi.

2035-yilgacha rivojlanish istiqbollari.

Global iqtisodiy tendentsiyalar tahlili asosida innovatsion moliyalashtirishning quyidagi rivojlanish yo‘nalishlari prognoz qilinadi.

Birinchi yo‘nalish. Sun'iy intellekt investitsion qarorlar qabul qilishning asosiy vositasiga aylanadi. Kredit reytingi, investitsiya risklari va loyihalarning iqtisodiy samaradorligi avtomatik baholanadi.

Ikkinchi yo‘nalish. Blokcheyn texnologiyalari asosida tokenlashtirilgan aktivlar bozori rivojlanadi. Korxonalar aktsiyalarni raqamli tokenlar ko‘rinishida joylashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Uchinchi yo‘nalish. ESG va yashil moliyalashtirish global kapital bozorining asosiy segmentlaridan biriga aylanadi. Ekologik mezonlarga javob beradigan korxonalar investitsiyalarni arzonroq qiymatda jalb qiladi.

To‘rtinchi yo‘nalish. FinTech platformalari orqali transchegaraviy investitsiyalar hajmi ortadi. Kichik va o‘rta biznes subyektlari xalqaro kapital bozorlariga bevosita chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Beshinchi yo‘nalish. Innovatsion moliyalashtirishda davlatning roli bevosita investor sifatidan ko‘ra, qulay institutsional muhit yaratuvchi va xususiy kapitalni rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

Umuman olganda, innovatsion moliyalashtirishni rivojlantirish korxonalarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, investitsion faollikni oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini kuchaytirishning muhim omili hisoblanadi. Shu sababli, innovatsion moliyalashtirishni davlatning iqtisodiy siyosati, xususiy sektor tashabbuslari va ilmiy salohiyat bilan uyg‘un holda rivojlantirish O‘zbekiston iqtisodiyotining innovatsion taraqqiyoti hamda barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlashda muhim strategik yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkin-ki, tadqiqot natijalari zamonaviy innovatsion moliyalashtirish mexanizmlaridan kompleks foydalanish korxonalarning moliyaviy barqarorligi va innovatsion salohiyatini oshirishning muhim sharti ekanligini ko‘rsatadi. Shu sababli, korxonalarda moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, raqamli moliyaviy vositalardan foydalanishni kengaytirish, davlat va xususiy investorlar hamkorligini kuchaytirish hamda innovatsion loyihalarni baholashning zamonaviy mezonlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Vahobov A.V., Malikov T.S., Moliya. Toshkent-2011
2. B.S.Mamatov va boshq. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Toshkent-2013
3. Malikov T.S., Olimjonov O.O., Moliya. Toshkent-2019
4. И.А.Бланк. Управление финансовыми ресурсами предприятия. Москва-2011
5. В.В.Ковалёв. Финансовый менеджмент: теория и практика. Москва-2019
6. А.Н. Фоломьев (под ред.). Инновационный менеджмент. Москва-2017